



“TASDIQLAYMAN”  
Xorazm viloyat statistika  
boshqarmasi boshlig‘i

A. O’tamuratov

2024-yil “6”

*muayyed*

## Statistik registrlarni yuritish bo‘limi to‘g‘risida NIZOM

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorazm viloyati statistika boshqarmasining Statistik registrlarni yuritish bo‘limining (keyingi o‘rinlarda – bo‘lim) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatları, shuningdek uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hududiy boshqarmasining (keyingi o‘rinlarda – boshqarma deb ataladi) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to‘g‘risidagi Nizom, mazkur Nizom, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo‘lim statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha faoliyatini boshqarma bo‘limlari, tumanlar va shaharlar statistika bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda – statistika bo‘limlari), davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa organlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari rahbarligida amalga oshiradi.

### 2-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo‘yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida;

ko‘p yillik va bir yillik statistika dasturlari, Statistika agentligining ish rejalar, boshqarma ish rejası, bo‘lim ish rejaları vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ijrosini ta’minlaydi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o‘rgangan holda uzoq muddatli maqsadlar va yo‘nalishlar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarni joriy etib boradi;

statistika dasturining statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko‘rsatish sohasiga oid qismi bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va taqdim etadi;

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini (keyingi o‘rinlarda – KTYADR) rivojlantirishining uslubiy asoslari va yo‘nalishlarini ishlab chiqish, undagi ma’lumotlarni aktual darajada saqlashni tashkil qiladi;

yuridik shaxslarni hisobga qo‘yish va ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha ishlarga uslubiy rahbarlik qiladi va ularni muvofiqlashtiradi;

statistika registrlarini yuritish va tizimli xizmat ko‘rsatish sohasida milliy statistika tizimiga statistika faoliyatini tashkil etishning xalqaro darajada tavsiya etilgan ilg‘or uslubiyotlari va tavsiyalarini joriy etish yuzasidan zarur choralarni ko‘radi;

rasmiy statistika sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda xalqaro tavsiyalar asosida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihamariga bo‘lim vakolati doirasidagi takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi.

*b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma’lumotlarini yig‘ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:*

KTYADR va Statistik registrlarning raqamli bazasi axborot tizimlarini yuritadi, shuningdek, ushbu axborot tizimlarini texnik qo‘llab-quvvatlash, ularning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish, uzlusiz ishlashini ta’minalash hamda idoraviy axborot tizimlari va resurslari bilan integratsiya qilish bo‘yicha ishlarni boshqarma tegishli bo‘limlari bilan birgalikda tashkil etadi;

statistik registrlarni raqamli bazasini yaratish, joriy etish va kelgusida uni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, raqamli statistik registrlar sohasida yagona uslubiyatni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

raqamli statistik registrlar bazasida aks ettiriladigan ma’lumotlar hamda ularni taqdim etishga mas’ul davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, Statistika agentligi markaziy apparatining tegishli tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda qatnashadi;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun KTYADR sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma’lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlaydi;

korxona va tashkilotlarning demografik ko‘rsatkichlarining statistik hisob-kitoblarini amalga oshiradi hamda mamlakatdagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning dastlabki statistik tahlilini olib boradi;

iqtisodiy-statistik tasniflar tizimini ishlab chiqish, joriy etish va yuritishda ishtirok etadi;

KTYADR sohasida xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlar reyting baholarini

tuzish uchun foydalaniladigan axborot manbalarini o‘rganishni tashkil etish, ular asosida shakllantiriladigan va tarqatiladigan statistik ko‘rsatkichlar tarkibini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

Statistika boshqarmasining bo‘limlarini statistik kuzatuv obyektlari haqidagi ma’lumotlar bilan ta’minlaydi;

raqamli statistik registrlarning zaxira nuxxalarini saqlash, axborot xavfsizligi va statistik ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlaydi.

*d) xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma’lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligni oshirishga qaratilgan ta’sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo’llash sohasida:*

rasmiy statistika ma’lumotlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etgan holda tayyorlanishi va tarqatilishini tashkil etadi;

sifatli va ishonchli statistika ma’lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligni ta’minalash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganadi va ularni rasmiy statistika sohasiga joriy etish choralarini ko‘radi;

rasmiy statistika uchun zarur bo‘lgan statistik tasniflagichlarni ishlab chiqish va xalqaro standart tasniflagichlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqilishida ishtirok etadi;

korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risidagi ochiq statistika ma’lumotlarini statistika organlari, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilar, boshqa davlat organlari va xalqaro tashkilotlarning internet resurslari hamda nashrlarida joylashtirish yo‘li bilan tarqatadi va barcha foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma’lumotlaridan keng foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratadi;

xalqaro tajribaga asoslangan KTYADR va raqamli statistik registrlarni standartlashtirish va muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

ma‘muriy ma’lumotlardan foydalanish asosida raqamli statistik registrlarni shakllantirish va yuritishda ushbu ko‘rsatkichlarni aniqligini va ishonchligini oshirish choralarini ko‘radi;

yagona xalqaro va umumdavlat tasniflagichlar asosida statistik birliklarning hisobini yuritish va ularni identifikatsiyalashni ta’minlaydi;

umume’tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofiq statistik metama’lumotlar tizimini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

boshqa mamlakatlarning rasmiy statistikani tayyorlovchilar va xalqaro tashkilotlar bilan ochiq statistika ma’lumotlarini o‘zaro almashadi.

*e) statistika ma’lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o‘z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilar va ma‘muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minalash sohasida:*

yagona tasniflash tizimi asosida yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiyalashni, KTYADRni samarali faoliyat ko‘rsatishini hamda yangilab borilishini ta’minlaydi;

statistikani ishlab chiqishning to‘liq siklini raqamlashtirish va batafsilroq statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar to‘g‘risidagi registrlarni va ma’lumotlar bazalarini yaratadigan hamda yuritadigan davlat organlari va ularning tasarrufidagi tashkilotlarning axborot tizimlari bilan raqamli statistik registrlar axborot tizimini o‘zaro integratsiyasini yo‘lga qo‘yishda ishtirok etadi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarga real vaqt rejimida korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarning kengaytirilgan ro‘yxatidan erkin foydalanishni ta‘minlaydi;

katta hajmdagi ma’lumotlarni yaratishda ma’lumotlarni oson qidirish va tahlil qilish imkoniyatini joriy qilishda hamda ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlar tarkibini kengaytirish va sifatini yaxshilashni ta‘minlashda ishtirok etadi;

o‘zaro mos axborot tizimlari va resurslarini yaratish uchun asos sifatida statistik tasniflagichlardan foydalanishni ta‘minlaydi.

*f) milliy statistika tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlanТИrish borasida faol siyosatni yuritish sohasida:*

vazirlik va idoralar xodimlarining statistika sohasidagi bilim hamda ko‘nikmalarini rivojlanТИrish bo‘yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini tasdiqlash hamda amalga oshirilishini tashkil etishda ishtirok etadi;

kadrlar malakasini oshirish jarayonlariga videokonferensaloqa tizimi va raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda masofaviy o‘qitishni tashkil etadi;

statistika organlari faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta‘minlash, xodimlarning samarali mehnat qilishlari, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy muhofaza qilish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish choralarini ko‘radi;

Bo‘lim xodimlarida yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqat qilib bo‘lmaydigan munosabatni shakllantirish bo‘yicha ta‘sirchan choralarini ko‘radi;

xalqaro tavsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib borish maqsadida statistikaga doir turli xalqaro tadbirdilar, seminar, treninglar va boshqa tadbirdarda Boshqarma xodimlarining ishtirokini ta‘minlaydi.

7. Bo‘lim o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Statistika dasturi, Statistika agentligining ish rejalarini, boshqarma ish rejasini, bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ijrosini ta‘minlaydi;

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO modellari asosida) hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini joriy etishni ta‘minlaydi;

rasmiy statistika sohasida qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va hujjat loyihalarini belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va tegishli organlarga kiritish bo‘yicha takliflarni tayyorlashda ishtirok etadi;

Bo‘limning ish usullarini yanada takomillashtirish, fuqarolar murojaatlarini

o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va munosabat bildirish, xodimlarning yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun mas’uliyatlarini oshiradi;

KTYADRni aktuallashtirish va tasarruf etish, KTYADRdagi korxonalar va tashkilotlar ma’lumotlarini kiritishda yuzaga kelgan xatolarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rsatmalar tayyorlaydi;

KTYADR sohasiga oid statistik ma’lumotlar va rasmiy statistik ma’lumotlarni tarqatish bo‘yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishtirok etadi;

korxonalar va tashkilotlar haqida belgilangan tartibda to‘liq va aniq ma’lumotlar bilan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa foydalanuvchilarni ta‘minlaydi;

KTYADR ma’lumotlar bazasining arxiv nusxalarini saqlash maqsadida, Statistika agentligi markaziy apparatining tegishli tarkibiy bo‘linmasiga uning so‘roviga asosan taqdim etadi;

davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar, soliq organlari va boshqa organlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;

ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlardan kelib tushadigan KTYADR ma’lumotlari bilan ishlashni amalga oshiradi;

korxona va tashkilotning umumdavlat tasnifi (KTUT) kodlarini biriktirilishi va uni takrorlanishini nazorat qiladi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kiruvchi tuzilmalar bo‘yicha solishtirish ishlarini amalga oshiradi;

KTYADR foydalanuvchilariga axborot-ma’lumotnomma xizmatini ko‘rsatadi;

ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilardan olingen ma’lumotlarni to‘plash va saqlash, shuningdek, ularni Statistika boshqarmasining tegishli bo‘limlari, davlat boshqaruvi organlari va boshqa foydalanuvchilarga belgilangan tartibda taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko‘rib chiqadi va ulardagi masalalarini hal qilish bo‘yicha, zarur hollarda jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida takliflar tayyorlaydi; KTYADRdagi tasniflashtirish ko‘rsatkichlarini statistika kuzatuvarlari o‘tkazish jarayonida olingen dastlabki statistika ma’lumotlari asosida o‘z vaqtida o‘zgartirishni amalga oshiradi;

raqamli statistik registrlar sohasiga oid maxfiy statistik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta‘minlaydi;

hududiy statistika organlariga uslubiy hamda amaliy yordam ko‘rsatadi;

Boshqarma tomonidan ishlab chiqiladigan statistik ko‘rsatkichlarning ishonchliligi, xolisligi, tezkorligi, kompleksliligi va tizimliliginini ta‘minlaydi;

Bo‘lim vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha zamonaviy axborot-kommunakatsiya texnologiyalari asosida tizimlashtirilgan elektron ma’lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to‘ldirilib va yangilanib borilishini ta‘minlaydi;

Bo‘lim o‘ziga yuklangan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

### **3-bob. Bo‘limning huquqlari va javobgarligi**

8. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilardan statistika registrlarini shakllantirish hamda o‘z vaqtida yangilash uchun zarur bo‘lgan axborotlarni bepul olish;

Statistika boshqarma bo‘limlari va hududiy statistika organlaridan o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma’lumotlarni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

KTYADR va raqamli statistik registrlar sohasidagi ishlarni tashkil etish samaradorligini oshirish sohasida Statistika agentligi rahbariyatiga takliflar kiritish;

KTYADR ma’lumotlar bazasining tuzilishi va dasturiy ta’minotiga o‘zgartirishlar kiritish;

rasmiy statistika sohasida normativ-huquqiy bazani yanada rivojlantirish va takomillashtirish, KTYADR uslubiyati va uslubini ishlab chiqish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

hududiy statistika organlari tomonidan KTYADR sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

tarkibiy tuzilmalarni yuritish masalasi bo‘yicha vazirlik va idoralar vakillari bilan birgalikda ishlash;

foydalananuvchilarga belgilangan tartibda KTYADR va raqamli statistik registrlardagi ma’lumotlarni taqdim etish;

Bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan boshqarma bo‘limlari bilan yo‘riqnomalar berish bo‘yicha yig‘ilishlarda qatnashish;

Bo‘lim faoliyatiga tegishli masalalar bo‘yicha konferensiyalar, seminarlar va yig‘ilishlar, shu jumladan, xalqaro yig‘ilishlar, shuningdek, xalqaro loyihalarda ishtirok etish.

9. Bo‘lim quyidagilar uchun javobgar:

o‘ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

KTYADRni qonun hujjatlariga muvofiq yuritilishini ta’minlash;

rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga amal qilish, ilg‘or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalanimayotgan usullarini doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo‘lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta’minlash.

### **4-bob. Bo‘limning tuzilmasi**

10. Bo‘limning tuzilmasi Bo‘lim boshlig‘i, shuningdek:

Korxona va tashkilotlar demografiyasi bo‘yicha yig‘ma tahliliy ma’lumotlarni shakllantirish bo‘limi;

Statistik registrlarni yuritish bo‘limini o‘z ichiga oladi.

Bo'lim tarkibiga boshqarma boshlig'i o'rribosari – bo'lim boshlig'i, bosh va yetakchi mutaxassislar hamda yetakchi muhandis-dasturchi kiradi.

11. Bo'limga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

12. Bo'lim boshlig'i va bo'lim mutaxassislari boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

13. Korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha yig'ma tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish bo'limi tarkibiga boshqarma boshlig'i o'rribosari – bo'lim boshlig'i, bosh va yetakchi mutaxassislar kiradi.

Bo'lim quydagilarni amalga oshiradi:

statistika maqsadlari uchun zarur statistik tasniflagichlar tizimini yuritish va ularga o'zgartirishlar kiritishda ishtirok etish;

statistik tasniflagichlarning elektron kutubxonasini yuritishda ishtirok etish;

hududiy statistika organlari, boshqarma bo'limlari va manfaatdor foydalanuvchilarga statistik tasniflagichlarni o'zlashtirishda uslubiy amaliy yordam ko'rsatish;

KTYADR axborot resursida statistik tasniflagichlardan foydalanish borasida KTYADRni yuritish uslubiyatini takomillashtirish;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun KTYADR sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlash;

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

14. Statistik registrlarni yuritish bo'limi tarkibiga bo'lim boshlig'i, bosh hamda yetakchi muhandis-dasturchilar kiradi.

Bo'lim quydagilarni amalga oshiradi:

statistika registrlarini raqamli bazasini yaratish, joriy etish va kelgusida uni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqamli statistik registrlar sohasida yagona uslubiyatni ishlab chiqishda ishtirok etish;

ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardan olingan ma'lumotlarni to'plash va saqlash, shuningdek, ularni boshqarma bo'limlariga belgilangan tartibda taqdim etish;

raqamli statistik registrlarni texnik qo'llab-quvvatlash, uning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish, uzlusiz ishlashini ta'minlash hamda idoraviy axborot tizimlari va resurslari bilan integratsiya qilish bo'yicha ishlarni tashkil etishda ishtirok etish;

korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish;

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

## **5-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish**

15. Bo'lim ishi O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, ko'p yillik hamda bir yillik statistika dasturlari, O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to‘g‘risidagi Nizom, mazkur Nizom, Statistika agentligi direktorining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek Statistika agentligining ishlab chiqarish dasturi, ish rejalar, bo‘limning ish rejalar va bo‘lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo‘limning ish rejasi boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadigan boshqarma ishlab chiqarish dasturi hamda ish rejalar asosida shakllantiriladi .

Xodimlarining funksional vazifalari bo‘lim boshlig‘i tomonidan yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va boshqarmaning tegishli o‘rbinosari tomonidan tasdiqlanadi.

#### **16. Bo‘lim boshlig‘i:**

Bo‘limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, o‘z mutaxassislarining ishini tashkil qiladi, bo‘limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo‘limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag‘batlantirish va jazolash choralar bo‘yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

Bo‘limning ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va boshqarma boshlig‘ining o‘rbinosariga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Bo‘limning yig‘ilishlari va majlislarida, shuningdek, Statistika agentligi rahbariyatining topshirig‘iga binoan bo‘lim tasarrufiga kiruvchi masalalar bo‘yicha idoralararo ishchi guruhalr va kengashlar faoliyatida ishtirot etadi;

KTYADR va raqamli statistik registrlarni yuritish sohasida normativ va uslubiy hujjatlarni ekspert jihatdan puxta ishlab chiqilishida ishtirot etadi;

Boshqarma va uning o‘rbinosarlarining topshiriqlariga muvofiq tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo‘yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini ta‘minlaydi;

Statistika agentligining va boshqarmaning joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tahliliy va boshqa materiallarni o‘z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta‘minlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlar, rejalar va dasturlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda, shuningdek, ularning rasmiy statistikaga tegishli qismini ijro etishda ishtirot etadi;

Bo‘lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to‘ldirish choralarini ko‘radi;

Bo‘lim kadrlari zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta‘minlaydi;

Bo‘lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo‘riqnomalar berish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o‘z vaqtida ijro etilishini qat’iy nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishslash va ularni saqlash bo‘yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta’minlaydi.

17. Bo‘lim boshlig‘i vaqtinchalik bo‘limgan taqdirda uning vazifasini bo‘lim bosh mutaxassisini bajaradi.

#### **18. Bo‘lim bosh mutaxassis:**

Tuman statistika bo‘limlari tomonidan statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko‘rsatish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjatlar loyihamarining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

amaldagi KTYADRni yuritish bo‘yicha qo‘llanma uslubiyatini takomillashtirish, KTYADR sohasidagi statistik instrumentlarni tayyorlash va tasdiqlash bo‘yicha boshqarma bo‘limlari va hududiy statistika bo‘limlarining takliflarini tahlil qiladi va umumlashtiradi, zarur tahliliy materiallar va xulosalar tayyorlaydi, shuningdek, zarur kelishuvlarni ta’minlaydi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlаридан (zarur hollarda ular huzuridagi tashkilotlardan) hamda boshqarma bo‘limlari ishlarni olib borish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni belgilangan tartibda olishda hamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanishda ishtirok etadi;

hududiy statistika organlari tomonidan KTYADRni yuritish bo‘yicha ishlarni tashkil etish, ulardagи Statistik registrlarni yuritish bo‘limlari faoliyatini monitoring va tahlil qilish, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar tomonidan beriladigan bildirishnomalarni va statistika kuzatuvlari natijasida olingan ma’lumotlarni o‘z vaqtida KTYADRga kiritilishini nazorat qilib boradi;

tegishli funksional masalalar bo‘yicha KTYADR (hujjatlar, tasniflagichlar, metama’lumotlar va h.k.) tizimlashtirilgan elektron ma’lumotlar bazasining yuritilishini, ularning doimiy ravishda to‘ldirilishini va yangilanishini nazorat qilib boradi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning uslubiy nashrlari Internet tarmog‘idagi materiallarni o‘rganish asosida statistika sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

funksional vazifalariga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarma bo‘limlariga va hududiy statistika organlariga maslahat yordami ko‘rsatadi;

Statistika agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy hujjatlarni, shuningdek, hududiy statistika organlari tayyorlagan ish rejaliari va boshqa materiallarni Statistika agentligining buyruqlari, reglamentlari talablariga, shu jumladan ularni rasmiylashtirish talablariga mos kelishini ekspertiza qiladi;

hududiy statistika organlari faoliyatini kompleks va maqsadli o‘rganishlarda ishtirok etadi;

Boshqarma boshlig‘ining topshirig‘iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko‘rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko‘rsatilgan masalalarni hal qilish bo‘yicha loyihani tayyorlaydi;

kasbiy malaka darajasini tizimli ravishda oshirib boradi;

jamoaning mehnat faoliyatiga faol ishtirok etadi;

KTYADR va raqamli statistik registrlarga oid hujjatlar va yo‘riqnomalar bilan ishslash tajribasini muntazam oshirib boradi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi va ularning ishini muvofiqlashtiradi, bo‘limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun javob beradi;

Bo‘lim boshlig‘i bilan hamkorlikda Statistika agentligi va bo‘lim faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy va idoraviy tartib-qoidalarni belgilovchi hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

bo‘limda ishda ijodiy yondashuvchanlik, vijdonlilik va tashabbuskorlikni, tartiblilik va intizomlilikni namoyon etish, berilgan topshiriqlar bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z vaqtida yig‘ish, sinchkovlik bilan tekshirish va sifatli hisobotlarni tayyorlashni nazorat qiladi;

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlaridan (zarur hollarda ular huzuridagi tashkilotlardan) hamda Statistika agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalaridan ishlarni olib borish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni belgilangan tartibda olishda hamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanishda ishtirok etadi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning uslubiy nashrlari Internet tarmog‘idagi materiallarni o‘rganish asosida statistika sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

boshqarma boshlig‘iga boshqarma va bo‘lim faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritadi;

ish jarayonida aniqlangan kamchiliklar to‘g‘risida boshqarma boshlig‘iga axborot kiritadi va uni bartaraf etish bo‘yicha takliflar beradi;

hududiy statistika organlari faoliyatini kompleks va maqsadli o‘rganishlarda ishtirok etadi;

kasbiy malaka darajasini tizimli ravishda oshirib boradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Hududiy statistika organlari tomonidan Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko‘rsatish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

KTYADR sohasidagi statistik instrumentariyni tayyorlash va tasdiqlash bo‘yicha statistika organlarining takliflarini tahlil qiladi va umumlashtiradi. zarur tahliliy materiallar va xulosalar tayyorlaydi, shuningdek zarur kelishuvlarni ta‘minlaydi;

hududiy statistika organlari tomonidan KTYADRni yuritish bo‘yicha ishlarni tashkil etish, ulardagi Statistik registrlarni yuritish bo‘limlari faoliyatini monitoring va tahlil qilish, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar tomonidan beriladigan bildirishnomalarni va statistik kuzatuvlar natijasida olingan ma’lumotlarni o‘z vaqtida KTYADRga kiritishni ta‘minlaydi;

tegishli funksional masalalar bo‘yicha KTYADR (hujjatlar, tasniflagichlar, metama’lumotlar va h.k.) tizimlashtirilgan elektron ma’lumotlar bazasining yuritilishini, ularning doimiy ravishda to‘ldirilishini va yangilanishini ta‘minlaydi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning uslubiy nashrlari Internet tarmog‘idagi materiallarni o‘rganish asosida statistika sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlashda ishtirop etadi;

hududiy statistika organlari faoliyatini kompleks va maqsadli o‘rganishlarda ishtirop etadi;

Bo‘lim boshlig‘ining topshirig‘iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun zarur materiallarni, ularda ko‘rsatilgan masalalarni hal qilish bo‘yicha loyihani tayyorlaydi;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun KTYADR sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma’lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlaydi;

kasbiy malaka darajasini tizimli ravishda oshirib boradi;

jamoaning mehnat faoliyatida faol ishtirop etadi;

KTYADRga oid hujjatlar va yo‘riqnomalar bilan ishslash tajribasini muntazam oshirib boradi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalgaga oshiradi.

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjat loyihalarining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy bo‘linmalarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni yil davomida tahlil qilib borishda ishtirop etadi;

KTYADR sohasi bo‘yicha dinamik qatorlarni yuritadi;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun KTYADR sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma’lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlaydi;

amaldagi statistika uslubiyatini takomillashtirish, statistik instrumentariyni tayyorlash va tasdiqlash bo'yicha Statistika agentligining markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari taqdim etgan takliflarni umumlashtiradi, zarur tahliliy materiallar tayyorlaydi;

KTYADR sohasi bo'yicha statistik to'plamlar uchun ma'lumotlar tayyorlashda ishtirok etadi;

hududiy statistika organlari faoliyatini kompleks va maqsadli o'rghanishda ishtirok etadi;

Boshqarma boshlig'inining topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarni ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihani tayyorlaydi;

funksional vazifalariga kiruvchi masalalar bo'yicha Statistika agentligining markaziy apparati tarkibiy bo'linmalariga va hududiy statistika organlariga maslahat yordami ko'rsatadi;

ish yuritishni olib boradi, Boshqarmada hujjatlarning o'tish tartibini tashkil qiladi. hujjatlarni arxivda saqlash uchun tayyorlash va o'z vaqtida topshirishni ta'minlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

#### **19. Yetakchi muhandis-dasturchi:**

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, statistik axborotlar, byulletenlar, to'plamlar va ma'ruzalar, yozishmalar uchun ma'lumotlar tayyorlash uchun shaxsan javob beradi;

yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi "Reg-System"ni muntazam ishlashini va undan foydalanuvchilarga tegishli huquqlarni rasmiylashtirishni ta'minlaydi;

Statistika agentligining markaziy apparati tarkibiy bo'linmalariga statistika kuzatuvsularini o'tazish uchun KTYADR asosida kataloglar shakllantirish va statistika kuzatuvlari natijasida olingan ma'lumotlarni KTYADRga kiritishni ta'minlaydi;

KTYADRda foydalaniladigan umum davlat tasniflagichlari va idoraviy statistik ma'lumotnomalarni o'z vaqtida yangilab boradi;

Boshqarma tegishli bo'llimlari bilan birgalikda raqamli statistik registrlarni texnik qo'llab-quvvatlash, uning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish, uzluksiz ishlashini ta'minlash hamda idoraviy axborot tizimlari va resurslari bilan integratsiya qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Boshqarma yuristqo'nsul'ti



I. Atajanov

Bo'lim boshlig'i



D. Kurbanova

Bo'lim bosh mutaxassisi

R. Gulliyev

Yetakchi muhandis-dasturchi



D. Maxmudova